

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI TARBIYALASHDA ERTAK TERAPIYASINING AHAMIYATI

Raxmonova Sojida Muxammadovna
Buxoro davlat Pedagogika Instituti o'qituvchisi,
Bahronova Oydin Hamroyevna
Bozorova Madina Orziyevna
Vobkent pedagogika kolleji o'qituvchilari.
raxmonovasojida9@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada bolani ertak bilan davolash ya'ni ertak terapiyasi, bolaning hissiyotlari bilan ishlash, undagi emotsional holatni barqarorlashtirish, ertak terapiyasining o'ziga xos xususiyatlari, bolaning rivojlanishi bilan bog'liq ko'plab muammolarni hal qilishi, bolalar uchun psixologik tuzatish usuli sifatida qo'llanilishi, ertaklarning bola hayotidagi ahamiyatli tomonlari, xususiyatlari haqida umumiy ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar: Ertaklar terapiyasi, emotsional holat, qobiliyat, psixologiya, barqarorlashtirish, ijodkorlik, hissiyot, usul, ertak, uyg'unlashtirish, davolash, zamonaviy psixoterapiya, psixika.

Аннотация. В данной статье рассматривается лечение ребенка сказкой, т.е. сказкотерапия, работа с эмоциями ребенка, стабилизация его эмоционального состояния, особенности сказкотерапии, решение многих проблем, связанных с развитием ребенка, метод. психологической коррекции детей, общие сведения о ее использовании, важные стороны и особенности сказки в жизни ребенка.

Ключевые слова: Сказкотерапия, эмоциональное состояние, способности, психология, стабилизация, творчество, эмоция, метод, сказка, гармонизация, лечение, современная психотерапия, психика.

Abstract. In this article, treatment of a child with a fairy tale, i.e. fairy tale therapy, working with the child's emotions, stabilizing the emotional state in him, the characteristics of fairy tale therapy, solving many problems related to the child's development, a method of psychological correction for children general information about its use, important aspects and features of fairy tales in a child's life.

Key words: *Fairy tale therapy, emotional state, ability, psychology, stabilization, creativity, emotion, method, fairy tale, harmonization, treatment, modern psychotherapy, psyche.*

Ertaklar terapiyasi “ertak bilan davolash” – bu bolaning (shaxsning) hissiyotlari bilan ishlash, undagi emotsional holatni barqarorlashtirish, bolaning ruhiyati, psixikasini davolash va uyg'unlashtirish, shaxsiyatni qadriyat asosida shakllantirish va bolaning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan murakkab mashqlar. Ertak terapiyasi turli millatlarning psixologiyasi, pedagogikasi, madaniy an'analari aks ettirib tug'iladi va jonlantiriladi.

Ertak terapiyasi psixoterapiya usuli sifatida insoniyatga ming yillar davomida qo'llanib kelingan va zamonaviy psixoterapiyaning yangiliklaridan biri sanaladi. Ertak terapiyasi ta'lim-tarbiya jarayonlarida, ijodkorlik va bolani har tomonlama rivojlanishida, ta'limga maksimal darajada ta'sir etishda va psixoterapiya vositasi sifatida qo'llaniladi.

Bu terapiyaga hayotiy tajribani og'izdan-og'izga uzatish vositasi sifatida qaraladi. Bu jamiyat tomonidan qabul qilingan eng oddiy, eng keng qo'llaniladigan bolani dunyoga alohida munosabatda tarbiyalash usulidir. Ertak terapiyasi - bu bolaga hayotiy zarur odob-axloq me'yorlari va qoidalarni o'rgatish usuli sanaladi.

Hammamizga ma'lum bu kabi odob-axloq me'yorlari ertaklarda va rivoyatlarida aks ettirilgan va uni bolajonlar maroq bilan tinglashadi. Ertak terapiyasi bolani jamiyatga ijtimoiylashtirish va tajribani uzatish, tarbiyalashning eng qadimgi usuli hisoblanadi.

Ertak terapiyasi bolani rivojlanishtirish vositasidir desak mubolag'a bo'lmaydi. Ertakni diqqat bilan tinglash, muhokama qilish jarayonida bolada samarali yashash uchun zarur bo'lgan fantaziya va ijodkorlik rivojlana boshlaydi. Bu bolada izlanish, ijodkorlik va qaror qabul qilishning asosiy mexanizmlarini shakllantiradi. Ushbu mexanizmlar kattalarda faol darajada ammo, bolalarda bunday emas. Bolalarda hayotiy muammolarni hal qilishning yanada samarali usulini topishga yordam berish uchun ertaklarning ahamiyatli tomoni katta.

Har bir ertakda insonlarning hayot tarzi, hayotiy muammolari mavjud. Bolalarga hayotiy tajribalar, dunyoviy bilimlarni yetkazish uchun yaxshi va yomon narsalarni qiziqarli, ishonarli va ravon tushuntirish, qahramonlar, kuchli askarlar, sehrgarlar, malikalar haqidagi ertaklarni ta'sirchan qilib tasvirlab berish lozim. Bu bolada

hissiy rivojlanishni shakllantiradi. Bolalar bilan birgalikda ertaklarni o'qish va muhokama qilish, kelajakda bolani hayotiy muammolarda to'g'ri qaror qabul qilishiga yordam beradigan ma'lumotlar bilan uni ongini boyitib borishiga zamin yaratadi.

Ertaklarni tinglash va idrok etish orqali bolalar o'z hayotlarini shakllantiradilar. Ertak bilan ishlash bevosita bolaga yordam berishga qaratilgan usuldir. Ertak terapiyasi bolaning hayotidagi qiyinchilik va muammolarga duch kelganda yechim topishi uchun sharoit yaratadi.

Ertak terapiyasining quyidagi o'ziga xos xususiyatlari:

- bola ertak tinglash vaqtida kattalarning yuz ifodalarini, ishoralarini kuzatadi, ertak qahramonlarini his qiladi va hissiyotlarni yetkazishga o'rganadi.
- tanlangan ertak bola uchun qiziqarli va dolzarb bo'lishi lozim, savollariga javob topa olishi, ertakdagi munosabatlarni anglashi, ta'sir munosabatlarini ko'rish va tushunishga yordam beradigan tarzda tuzilgan bo'ladi.
- ertaklar bolaning idrok etishlari uchun sodda va tushunarli bo'lishi ahamiyatli, shuni esda tutish kerakki, bolalar ertak dunyosini faqat to'rt yoshida haqiqatdan ajrata oladilar.

uch va undan kichik bolalarga odamlar va hayvonlar haqidagi hikoyalar bilan murojaat qilish mumkin. Sehrgarlik, parilar, malikalar, osongina hayvonlar qiyofasiga kirish bu yoshdagi bolajonlarga juda yoqadi.

Bizga ma'lumki, ertaklar terapiyasi yaqinda keng tarqalgan psixologik tuzatish usuli sifatida zamonaviy psixologiyaning yangiliklaridan biri bo'lib va bu terapiyaning ildizi psixologiya sanaladi.

Insoniyat ruhi bo'yicha mutaxassis olimlar Jung va Freyd ertaklarni talqin qilganlar va tahlil qilganlar. Ertaklarning tarkibida barcha asosiy psixotiplar mavjud va bu ibratli ertaklarda ko'rib chiqilgan turlicha voqealar, hodisalar bola uchun hayotdagi o'xshash vaziyatlardan chiqish yo'lini topishga yordam berishga xizmat qilishi mumkinligini aytadilar. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining pedagoglari bularni hisobga olgan holda ongli ravishda bolalar uchun foydali turli xil mavzudagi ertaklardan foydalanadilar. Ertak terapiyasi bolalarga psixologik ta'sir etish usuli sifatida o'zining ajoyib samaradorligini ko'rsatdi. Ertak terapiyasi barchamizga ma'lumki ota-bobolarimiz tomonidan qo'llanib kelingan, faqatgina bu jarayon

nomlanmagan ammo bir qancha maqsadlarni ko'zda tutgan.

Ertak terapiyasi bolaning rivojlanishi bilan bog'liq ko'plab muammolarni hal qiladi:

- boladagi ijodiy salohiyatni ochish va faollashtirish;
- tasavvur qilish va xayoliy idrok etishning rivojlanishi;
- qadriyatlar, kundalik madaniyat va ajdodlar me'rosi bilan tanishish;
- o'zini anglash;
- bolada nutqning shakllanishi va takomillashishi;
- to'g'ri talaffuzni, artikulyatsiyani, barmoq motorikasini va fazoviy fikrlashni rivojlantirish;
- turli xil vaziyatlarda munosabatga kirishish;
- ijtimoiy moslashuv va sog'lom turmush tarzini tarbiyalash.

Ertak terapiyasi bolalarni ertaklar dunyosiga cho'mdirishga imkon beradi va ertaklardagi qahramonlar misolidan foydalanib, bola o'zini boshqa tomondan ko'rishi mumkin, shu bilan birga bola o'z muammolarini hal etishi mumkin.

Biz bolalarni itoat qilishga majbur qilishimiz mumkin ammo bu uning ruhiyatida salbiy ta'sir ko'rsatadi. Turli xil xarakterli bolalarimiz mavjud - qaysar, injiq, to'polonchi. Ular kattalarga quloq tutmasligi mumkin ammo ertaklarga qiziqishlari mumkin. Ertaklar

bolaning e'tiborini butunlay o'ziga jalb qila oladi, o'zining dunyosiga shubhasiz kirita oladi. Bolani shunchali diqqatini tortadiki, bola ertak qahramonlarini his qiladi, ularning holatiga tushadi, ular bilan birlashadi. Ota-ona bu yerda usul sifatida ertak terapiyasining qanchalik kuchli ekanligi anglamog'i va farzandi muammolariga qarab ertaklar tanlashi lozimligi tavsiya etiladi.

Bolalar uchun psixologik tuzatish usuli sifatida ertak terapiyasi bolani hayotdagi qo'rquvlardan ozod qiladi. Bu terapiyaning eng muhim tomoni - bolaning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, hayotga nisbatan keng dunyoqarashni shakllantirishdir. Ertaklar bolaga hayotdagi adolatsizliklar va shafqatsizliklarni qabul qilishga ko'maklashadi, bolani hayotga, katta bo'lishga tayyorlaydi. Bola qanchalik ko'p ertaklarni o'rgansa, uning hayot haqidagi tajribasi shunchalik boy bo'ladi. U hayoti davomida muammoli vaziyatlarga, ma'lum bir holatlarga yechim topishda ongli ravishda murojaat qilishga o'rganadi.

Ertaklar sokin yetkazilishi maqsadga muvofiqroq. Chunki ertakni baland ovozda aytib berish inson shaxsiyatini shakllantirishga kuchli ta'sir ko'rsatishi mumkin. Ertaklar guruhdagi holat yoki bolaning ehtiyojlaridan kelib chiqib

tanlanishi mumkin. Bunday tanlovlar pedagogdan yoki ota-onadan biroz diqqat talab etadi xolos.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, ertaklar yordamida bolaga nafaqat yaxshi-yomon narsalar, hayotiy tajribalar o'rgatiladi. Eng muhim jihati pedagoglarga, ota-onalarga farzandining ichki dunyosini yaxshiroq tushunishga imkon beradi bu terapiya. Shu sababli, ertak

terapiyasi maktabgacha yoshdagi bolalar uchun psixologik tuzatish usuli sifatida juda keng tarqaldi. Bolaning xayollari va maqsadlarining aksi sifatida qaraladi ertaklarga. Ota-onalar, maktabgacha ta'lim tashkiloti pedagoglari qachonki bolajonlarning sevimli hikoyalari o'rganib chiqsalar, ularning qiziqish va intilishlarini tezroq anglab oladilar. Shundagina har bir harakat samarali amalga oshiriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. F.Qodirova, Sh.Toshpo'latova, M.A'zamova. "Maktabgacha pedagogika".-T., "Ma'naviyat". 2019 y.- 688 bet
2. Vachkov IV Ertak terapiyasiga kirish yoki Hut, kulba, menga oldinga murojaat qiling ... - M.: Ibtido, 2011.
3. Grabenko TM, Zinkevich-Evstigneeva TD, ijodiy terapiya bo'yicha seminar. - Sankt-Peterburg: Nutq, 2003. - 400 b.
4. Sokolov D.Yu. Ertaklar va ertak terapiyasi. - M.: Eksmo-press, 2001; 2005. - 224b.
5. Kudzilov DB, Zinkevich-Evstigneeva TD. Ertak terapiyasida rasm chizish orqali psixodiagnostika. - Sankt-Peterburg: Nutq, 2003. - 146s.
6. Gnezdilov A. V. Puti piligrimov: terapevticheskie skazki. — SPb.: Rech, 2005. — 223 s.
7. Kulinsova I. Progonim detskie straxi // Doshkolnoe vospitanie. — 2007. — № 4. — S. 24-31.
8. Praktika skazkoterapii / Pod red. N. A. Sakovich. — SPb.: Rech, 2004. — 224 s.
9. Sokolov D. Yu. Skazki i skazkoterapiya, a emyo Lunnie dorojki, ili priklyucheniya prinsa Eno / Dmitriy Sokolov. — [4-e izd., ispr. i dop.]. — M.: Izd-vo In-ta psixoterapii, 2005. — 218 s.